

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

AMALIY FILOLOGIYA MASALALARI

2024 Vol. 2 (5)

www.aphil.tsuull.uz

Bosh muharrir:

Saodat Muhamedova

Mas'ul kotib:

Elyor Xonnazarov

Tahrir kengashi

Aynur O'zjan (Turkiya), Baydemir Husayn (Turkiya), Alfiya Yusupova (Rossiya), Luiza Samsitova (Rossiya), Almaz Ulvi (Ozarbay-jon), Merveri Ismailova (Ozarbayjon), Abdulhay Sobirov, Shoirra Isayeva, Nargiza Musulmonova, Munira Shodmonova, Oqila Turaqulova, Iroda Azimova, Yekaterina Shirinova, Dilrabo Elova, Xurshida Kadirova, Jumana-zar O'rozov, Xasan Akramov, Ra'no Azizova, Azimjon Davronov.

Jurnal haqida ma'lumot

"O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari" seriyasi - Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro'yxatidagi "O'zbekiston: til va madaniyat" akademik jurnalining ilovasi hisoblanib, unda professor-o'qituvchilar, doktorantlar, stajor-tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlarning amaliy tilshunoslik, amaliy adabiyotshunoslik, kompyuter lingvistikasi, o'zbek tilini davlat tili va xorijiy til sifatida o'qitish, nashirlik ishi kabi sohalarga oid tadqiqotlari nashr qilinadi.

Jurnal ilovasi bir yilda ikki marta chop etiladi.

O'zbek, rus va ingliz tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

"O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari" seriyasi 2022-yildan chiqa boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: aphil@tsuull.uz

Website: <http://www.aphil.tsuull.uz>

MUNDARIJA

AMALIY FILOLOGIYA

Aynur Cəfərova

Qədim “Manas” dastanında işlənmiş vokal və konsonantlar..... 5

Екатерина Ширинова

Конфликтное общение: факторы, причины, некоторые пути
преодоления 13

Jumanazar O‘rozov

Lingvokriminalistik tadqiqning metod va metodologiyasi xususida... 20

Nərmin Rəhimova

Əbdülhəmid Çolpanin həyat və yaradıcılığı 29

Sabohat Allanazarova, Dilrabo Elova

Sentiment tahlil uchun matndan valentlik, hissiyot va boshqa ta’sirchan
holatlarni aniqlash 38

O‘ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O‘QITISH

Oqila Turakulova

Xorijiy davlatlarning o‘quvchilarida mutolaa madaniyatini rivojlantirish
tajribasi 48

Fotima Xamidullayeva

O‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda dialoglarning ahamiyati 58

Azoda Beysenova

“Soliqlar va soliqqa tortish” yo‘nalishi talabalariga o‘zbek tili darslarida
ichki ish hujjatlarini o‘rgatish 66

Nilufar Odiljonova

O‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda media ta’limdan
foydalanish 76

LINGVOKULTUROLOGIYA

Həsənova Ülkər

Azərbaycan xalqının təşəkkülü prosesi 83

LINGVOPOETIKA

Nasim Xo‘jayev

Tilshunoslikda badiiy matn tadqiqi 92

SOTSILOGIYA

Snegur Margarita, Xasan Akramov

Language in the national identity stucture 99

CHOG'ISHTIRMA TILSHUNOSLIK

Xurshida Kadirova

O'zbek tarjimashunosligi va chog'ishtirma tilshunosligida evfemizm va disfemizmlar talqini..... 109

KORPUS LINGVISTIKASI

Elyor Xonnazarov

Davomli hozirgi zamon grammatik shakllari annotatsiyasi.....126

AMALIY PSIXOLOGIYA

**Арай Аманова, Саодат Мухамедова, Эльмира Абдраимова,
Альфия Женисова**

Особенности взаимоотношения родителей и учащихся средней школы в инклюзивной среде..... 134

**Гульжанар Джумажанова, Илхом Аслонов, Оксана Беленко,
Гульнар Турсунгожинова**

Психологические условия формирования профессионального мышления студентов вуза..... 144

LINGVOKRIMINALISTIK TADQIQNING METOD VA METODOLOGIYASI XUSUSIDA

Jumanazar O'rozov¹

Abstrakt

Dunyo miqyosida tilshunoslik va huquqshunoslik sohalarining o'zaro integratsiyalashuvi asosida yuzaga kelgan lingvokrimanalistika, sud lingvistikasi, sud notiqligi, qonun tili lingvistikasi, huquq ijodkorligi lingvistikasi kabi maxsus sohalarining amaliy ahamiyati yuqori darajada baholanmoqda. Xususan, sud-tergov jarayonida kriminalistik matnlarni lingvistik aspektda tekshirish, tahlil qilish, muammoli holatlarni aniqlash va ularga huquqiy baho berish kabi vazifalarning amalga oshirilishi katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Ushbu maqolada sud-tergov jarayoni bilan bog'liq bo'lgan matnlarni lingvistik tadqiq qilish metodologiyasi haqida so'z yuritilgan. Ushbu metod matnni tadqiq qilishda muhim o'rin egallaydi.

Kalit so'zlar: *Lingvokriminalistika, lingvokriminalistik ekspertiza, metodologiya, metod, umumiy va maxsus metodlar.*

KIRISH

So'nggi yillarda shaxs qadr-qimmati, intellektual mulkiga tajovuz ko'rinishidagi turli jinoyatlar sonining ortayotganligi qo'lyozmalarda umumiy va individual jihatlarni aniqlash bo'yicha maxsus metodika yaratilishiga bo'lgan ehtiyojning oshishiga sabab bo'lmoqda. Anonim ko'rinishidagi xatlarda gumonlanuvchilar auditoriyasini qisqartirish, matnning lingvistik atributlariga asoslanib yosh, gender va hududiy xosligiga ko'ra muallifning taxminiy obrazini yaratish masalaning adolatli va xolisona yechim topishiga omil bo'ladi. Shu ma'noda, maxsus lug'atlar tuzish, soha korpusini yaratish soha oldida turgan dolzarb vazifalardan sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlarining jinoyatlarni tergov qilish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil

¹ O'rozov Jumanazar Norqizilovich – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti katta o'qituvchisi

E-pochta: jumanazarurazov1992@gmail.com

ORCID ID: 0000-0001-9508-921X

Iqtibos uchun: O'rozov, J.N. 2024. "Lingvokriminalistik tadqiqning metod va metodologiyasi xususida". O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari. 2(5): 20-28. DOI: 10.52773/tsuull.aphil.2024.2.5/LVLM5250

18-apreldagi PQ-2898-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Ichki ishlar vazirligi ekspert-kriminalistika bosh markazi tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlarini jadallashtirish, xususan, qo'lyozma matnlar bo'yicha ovozli ashyoviy dalillar tadqiqotida qo'llaniladigan ilmiy-uslubiy va axborot-qidiruv tizimlarini takomillashtirish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirish talab etadi.

Lingvokriminalistika tadqiq qamrov doirasi tobora kengayib borayotgan va tergov ishlarini amalga oshirishda ahamiyati yuqori sohalardan biri. Lingvokriminalistikaning mohiyatini turli fan, sohalar: kriminalistika, lingvistika, yurisprudensiya, falsafa, psixologiya, dinshunoslik, grafologiya kabilarning integratsiyasini taqozo etadi.

Lingvokriminalistika metodologiyasi soha bo'yicha bahsli matn tiplarini ajratish, ularga yechim topishning samarali usullarini tanlash, tadqiq bosqichlarini belgilash, natijalarni umumlashtirish, xulosalarni shakllantirish, umumiy tamoyillarni ishlab chiqish va shu tamoyillar asosida tadqiq o'tkazish majmuasidan iborat.

ASOSIY QISM

Bugungi kunda sud-tergov jarayonida yuzaga keluvchi matn bilan bog'liq ziddiyatli vaziyatlarga adolatli yechim topish, amaliyotga lingvistik bilimlarni joriy qilish va yuridik jihatdan mutanosiblashtirishga ehtiyoj mavjud. Ayniqsa, savdo belgisi va mualliflik huquqining buzilishi, plagiat, shubhali logotip va yorliqlar, matn avtorizatsiyasi, haqorat, tuhmat mazmunidagi yozishmalar, davlat tuzumiga qarshi qaratilgan ekstremistik siyosiy xabarlarda so'zning kontekstual ma'nosi, hatto alohida so'zlarning yozilish ma'nosi va og'zaki matnlar, elektron pochta xabarlari, ijtimoiy tarmoqlardagi "tvit"lar, kiberjinoyatlarni fosh etish, o'z joniga qasd qilishga oid matnlar, vasiyatnomalar va ichki ishlar organlariga berilgan tortishuvli ayblovlar, ekstremistik ruhdagi murojaatlarning asl mohiyatini aniqlash, xulosa chiqarishda lingvokriminalistikaning o'rni sezilarli darajada o'sib bormoqda.

Ba'zi manbalarda lingvokriminalistik tadqiq metodikasida ma'lum metodik tamoyillarni ajratish mumkinligi, ularning har biri ma'lum bir tadqiq turi bilan bog'liqligi, ularning har biri bilan ekspertizaning ma'lum bir turi bog'liqligi va ushbu jarayonda qo'llanadigan eng muhim yondashuvlar, standart, o'zgartiruvchi, o'xshash, sinov, kognitiv yondashuvlar sifatida belgilanishi lozimligi ta'kidlanadi [Апутьюнов 2019, 80].

Shundankelibchiqqanholda, fikrimizcha, lingvokriminalistik


tadqiq metodologiyasini mavjud nazariyalarni amaliyotga tatbiq etish, metodlarni to'g'ri qo'llash, matndagi nutqiy vaziyatni aniq baholash, ekspertizani tashkil qilish va o'tkazish tamoyillari, usullari, metodlari va vositalari tizimi tashkil qiladi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, lingvokriminalistik tadqiq metodologiyasi bahsli matnlarni tadqiq qilishda quyidagi tarkibiy qismlarni aniqlab beradi:

1. Kim yoki nima, shaxs yoki predmet haqida ma'lumot beradi;
2. Qanday qilib degan savolga javob beradi;
3. Matnning kommunikativ maqsadini ochib beradi va "nima maqsadda?" degan savolga javob beradi.

Shundan kelib chiqib, lingvokriminalistik tadqiq metodikasini umumiy va maxsus metodlarga ajratib olishimiz mumkin. Bularni quyidagi jadval asosida tanishtirishga harakat qilamiz:

1-jadval



Lingvokriminalistik tadqiqotlarni amalga oshirishda qo'llaniladigan usullar tilshunoslik fanidan olingan, ammo ilmiy va ekspert tadqiqotlari o'rtasidagi farq katta bo'ladi. Yechilishi kerak bo'lgan muammoga qarab, ekspert tilshunos har bir aniq holatda kriminalistik faoliyatning umumiy tamoyillariga javob beradigan tadqiqot usulini tanlashi kerak. Bahsli matnni lingvokriminalistik tadqiq qilish jarayonida umumiy va maxsus metodlardan foydalaniladi, ularning shakllanishi sud ekspertizasi sohasiga zamonaviy lingvistik texnologiyalarning integratsiyalashuvi natijasida yuzaga kelgan. Yechilishi kerak bo'lgan vazifalarga qarab, mutaxassis tilshunos ekspert lingvistik tadqiqotlar uchun muayyan usul yoki usullar majmuasini tanlashi mumkin bo'ladi.

Lingvokriminalistik tadqiq metodologiyasiga bilish usullari, tadqiqot jihatlari, bilimlarni tizimlashtirish qoidalari, uning haqiqat mezonlari kiradi. Metodologiya asosiy funksiyalariga

quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Tadqiqot predmetining ta'rifi va qurilishi (ushbu hodisani tushunishdagi dastlabki pozitsiyalar, uning bog'liq hodisalar bilan aloqasi, ulardan ajralish);
2. Tadqiqot maqsadini aniqlash;
3. Ushbu tadqiqot uchun metodlar tizimini ishlab chiqish;
4. Tadqiqot natijalarining belgilangan maqsadlarga muvofiqlik darajasini baholash.

Lingvokriminalist tadqiqot o'tkazish jarayonida nafaqat shaxsga yetkazilgan zararni, motivni, niyatni, protsessual qarorni, balki ijtimoiy munosabatlarning ma'lum tizimini ham ochib beradi. Ekspertning xulosasi sha'ni, qadr-qimmati, ishchanlik obro'siga putur yetkazish yoki zarar yetkazish orqali "kommunikativ maqsadlar"ni ko'rsatadi. Kommunikativ vazifa subyekt o'z bayonotini ma'lum bir shaxsga faol ravishda yo'naltirganda va o'z oldiga qandaydir pragmatik kommunikativ maqsadni qo'yganda namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, so'zlovchi tomonidan suhbatdoshning yoshi, kasbiy xarakteristikasi, shaxsiy va boshqa xususiyatlarini hisobga olish katta ahamiyatga ega. Har qanday matn, har qanday bayonot har doim qabul qiluvchiga qaratilgan va uning reaksiyasini taklif qiladi.

Yurislingvistika rivojlanishining hozirgi bosqichida lingvokriminalistik tadqiqot uchun standart metodologiya mavjud emas, ba'zi mualliflarning fikriga ko'ra, aniq bir metodologiya mavjud bo'lsa, bir tomondan, bahsli matnni ekspertizadan o'tkazish uchun zarur bo'lgan vaqtni tejaydi, ikkinchi tomondan, huquqiy jihatdan samarali, aniq hamda ishonchli dalillarni ochib berishi mumkin [Кириллова, 2012]. Bu borada L.E.Kirillova asosli fikr bildirgan, chunki ekspertiza uchun aniq bir belgilab qo'yilgan metodologiya mavjud bo'lsa, ekspertiza natijasi ishonchli, sifatli va vaqtdan unumli foydalanilgan bo'ladi.

Davlat va nodavlat sud ekspertizalarida og'zaki va yozma matnlarni o'rganish bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarning ekspert amaliyotiga, kasbiy tayyorgarligiga va ixtisoslashuviga yagona ilmiy-uslubiy yondashuvni ishlab chiqish zarurati muammolardan biridir. Matnlarni lingvokriminalistik tadqiq etishda birinchi navbatda tadqiqot usulini to'g'ri tanlash muhim. Tadqiqot usulini tanlashda quyidagi mezonlarga e'tibor qaratishimiz lozim:

- umumiy lingvistik usullardan ko'ra yurislingvistikada ishlab chiqilgan maxsus usullarni afzal ko'rish. Bunda matndagi murojaatni aniqlash usullarini, ziddiyatli bayonotlarda haqoratlilik belgilarini, matndagi keskin salbiy baholashni aniqlash usullarini qo'llash

tushuniladi;

- maxsus usullar mavjud bo'lmaganda, qo'llaniladigan umumiy lingvistik usullarning soni va bu usullardan foydalanishni asoslash muhim ahamiyatga ega;

- usulni tanlashga tadqiqot obyektining xususiyatlari: matn turi (og'zaki yoki yozma matn, kreallashtirilgan matnlar), matn janri, matn hajmi ta'sir qiladi. Bitta ekspertiza doirasida turli obyektlarni birlashtirishga yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Usullarning yagona reestrining yo'qligi bir xil matnni turli mutaxassislar tomonidan tahlil qilishda mutlaqo boshqa usullardan foydalanish mumkinligiga olib keladi, natijada ekspertlarning xulosalari ham farq qilishi mumkin.

Lingvokriminalistik tadqiq metodologik masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, matnning lingvistik va huquqiy jihatlarini aniqlash, tahlil qilish, qonun hujjatlari matnini tekshirish, tilning, umuman, yuridik maydonda ishlash xususiyatlarini o'rganishdan oldin sohaning metodologiyasi masalalariga oydinlik kiritish lozim. Lingvokriminalistik tadqiq jarayoni jadal rivojlanish bosqichiga kirgandan so'ng sohaning metodologiyasini belgilash, metodologik muammolarini asoslash soha mutaxassislari faoliyatida asosiy munozaralar mavzusiga aylandi.

Lingvokriminalistik tadqiq metodologiyasi nazariy va amaliy faoliyatni tashkil etish, qurish tamoyillari va usullari tizimi sifatida tushunilishi masalalarini quyidagicha belgilash mumkin:

- 1) maxsus bilimlar miqdori;
- 2) tadqiqot predmeti va maqsadlari (ekspert vazifalari);
- 3) tadqiqot obyekti;
- 4) foydalaniladigan usullar tizimi;
- 5) tadqiqot natijalari (xulosalarni shakllantirish).

Lingvokriminalistik tadqiqot metodologik masalalarining keyingi qatorida tadqiqot obyektini belgilab olish ham asosiy ahamiyat kasb etadi. Xo'sh, lingvokriminalist qanday materiallar bilan ishlashi mumkin? Tadqiqot jarayonida nimalarga atroflicha e'tibor qaratiladi? kabi savollarga mutaxassis tilshunos I.V.Gart quyidagi fikrlarni bildirib o'tadi: "Amaliyot shuni ko'rsatadiki, barcha davlat va nodavlat tashkilotlar ekspert tilshunoslari shartli ravishda uch guruh tarafdorlariga bo'linishi mumkin:

birinchi guruh lingvistik ekspertizaga tor yondashuv tarafdorlari tomonidan shakllantiriladi. Ular lingvistik ekspertiza obyektini belgilashda tilshunoslik obyektidan kelib chiqqan holda yondashadilar. Shu sababdan ular tilning tabiiy va ijtimoiylik xususiyatidan ke-

lib chiqqan holda xabarning tarkibiy qismi bo'lmasa, og'zaki bo'lmagan tahlildan voz kechish kerak deb hisoblashadi;

ikkinchi guruh ekspertlar esa lingvistik ekspertiza obyekt sifatida nutq faoliyati mahsulotlarini ko'rib chiqadi. Ushbu guruh tarafdorlari asosiy e'tiborni "kodlangan" matnlarga qaratishadi;

uchinchi guruh – keng yondashuv tarafdorlari. Lingvistik ekspertiza obyektlari nafaqat nutq, balki imo-ishoralar, yuz ifodalarini ham hisobga oladi, aloqa ishtirokchisi tanasining pozitsiyasi, emotsiyasi ham obyekt vazifasini bajarishi mumkin deb hisoblashadi. Boisi turli holatlarda ham nutq bilan ishlash imkoniyati mavjud bo'lmaganda, tashqi tasvirlar ham matnni tahlil qilish imkoniyatini beradi" [Гапр 2019, 174-184].

Ekspertga to'g'ri savollarni shakllantirish uchun huquqni muhofaza qiluvchi organ qonunosti hujjatlarning muayyan moddasi bo'yicha dalil predmetini aniq ko'rsatishi kerak. Shu nuqtayi nazardan, lingvokriminalist mavjud bahsli matnlar ekspertizasini obyektiv va subyektiv tomondan tadqiq qilish lozim bo'ladi. Bunda mutaxassis-ekspert V.V.Bichkov bahsli matnni obyektiv va subyektiv yondashuv asosida tadqiq qilishda quyidagilarga e'tibor berishni ta'kidlaydi:

Obyektiv tomondan:

1) nafrat yoki adovatni qo'zg'atish va (yoki) shaxs yoki shaxslar guruhining qadr-qimmatini kamsitish faktini aniqlash va isbotlash kerak: jinsi, irqi, millati, tili, kelib chiqishi, dinga munosabati, qaysi ijtimoiy guruhga mansubligi;

2) siyosiy tashkilotlar, diniy birlashmalar, milliy urf-odatlar va boshqalarni tanqid qilmaslik;

3) oshkoralik;

4) joy;

5) vaqt;

6) atrof-muhit;

7) usul;

8) shakl (og'zaki, yozma);

9) asoslar (jinsi, irqi, millati, tili, kelib chiqishi, dinga munosabati, har qanday ijtimoiy guruhga mansubligi);

10) ommaviy axborot vositalaridan foydalanish fakti va boshqalar.

Subyektiv tomondan:

1) aybdorlik;

2) motiv;

3) maqsad [Бычков 2013, 138-145]

Lingvokriminalistik tadqiqot metodologik masalalaridan eng jiddiy ilmiy-uslubiy muammosi bu ilmiy bilimlarning predmetini, shuningdek, ekspert vazifalarini mutaxassislar tomonidan turlicha tushunishdir. Bunda davlat va nodavlat ekspertiza tashkilotlarida qo'llanadigan terminlar va ularning mohiyatini talqin qilish, ekspertning vazifasi va vakolat chegaralarini belgilash. Ekspert qanday masalalarga oid materiallarni ko'rish va bunda qanday ilmiy-nazariy manbalarga tayanishi lozim degan savollarni o'rta qo'yish kerak.

XULOSA

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, lingvokriminalistik tadqiq jarayonini belgilash, ishlab chiqish va yakunlash jarayonida turli muammoli vaziyatlar, munozara va muhokamalar yuzaga kelishi, tabiiy. Sudgacha tergov, surishtiruv jarayonida amalga oshiriladigan lingvokriminalistik tadqiq aniq strategik yondashuv, kuchli bilim va malakani talab etadi. Lingvokriminalistik tadqiq o'tkazishda va xulosalar chiqarishda mavjud markazlar faoliyatining hamkorligini yo'lga qo'yish, shuningdek, sohaga oid mutaxassislarni jalb etish, har bitta ekspertizani ishlab chiqishda ekspertlar jamoasini shakllantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. E'tibor qaratish lozim bo'lgan yana bir masala shundaki, asosiy ekspertiza markazlari negizida hududiy filiallarni tashkil etish va ular faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish lozim. O'z o'rnida, bu lingvist-ekspert kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish mexanizmini yaratish va takomillashtirish ehtiyojini yuzaga keltiradi. Tashkil etilgan markaziy tuzilmalarning turli metodologiyaga asoslangan o'ziga xos metodik yondashuvlari mavjud bo'lishi lozim. Bunday metodik yondashuv markaziy tuzilma negizida viloyatlar kesimida ixtisoslashtirilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Ekspert sifatida faoliyat yuritadigan mutaxassislarning lingvistik, yuridik hamda boshqa bilim va malakalari ham bo'lishi lozim. Adovat ruhidagi, mamlakat xavfsizligiga, siyosiy boshqaruv tizimiga tahdid qiluvchi turli ekstremistik chaqiriqlar, yashirin ko'rinishdagi da'vat materiallari, nafrat va adovatni qo'zg'atishga qaratilgan da'vatlar yoki shaxs qadr-qimmatiga tahdid qiluvchi haqoratlar yuzasidan tadqiqot o'tkazishda qiyinchilik va muammolar yuzaga kelishi, tabiiydir. Boisi ekspertizani amalga oshiradigan lingvist-ekspertlarning asosan filolog-mutaxassislar jamoasidan iborat ekanligi lingvistik va yuridik, psixologik bilimlarni umumlashtirish imkoniyatini pasaytiradi. Bu esa jarayonning samarali va tezkor amalga oshirilishiga to'sqinlik qiladi. Demak, lingvokriminalistik tadqiqot maxsus bilimlarga ega

bo'lgan ekspertlar jamoasi tomonidan amalga oshiriladigan amaliy jarayondir. Aynan shunday malakaga ega bo'lgan lingvist-ekspert kadrlar muammoning obyektiv ko'rib chiqilishi va yechim topilishiga yordam beradi. Bu jarayonda lingvist-ekspertning vazifalari nimadan iborat? Albatta, sud-ekspert faoliyatining, xususan, lingvist-ekspertning ham vazifasi amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq, murojaatchi va sud jarayoniga amaliy yordam ko'rsatishdan iborat. Tergov va surishtiruv davomida turli yo'nalishlarda mutaxassillar ko'magiga ehtiyoj tug'iladi hamda bu jarayonda ekspert va mutaxassis termini farqlanadi. Lingvokriminalist keng qamrovli bilimlarga ega shaxs tushunchasini ifodalaydi. Afsuski, mavjud qonun hujjatlarida ekspertlar faoliyatini tashkil etish, ularning vakolat doirasi kabi masalalarga e'tibor qaratilmagan. Bizning fikrimizcha, lingvist-ekspertning vakolati, unga qo'yiladigan talablar bo'yicha qonuniy asos yaratilishi lozim.

Adabiyotlar

- Арутюнов А.С. 2019. Методология производства судебной лингвистической экспертизы с целью установления проявлений экстремизма // ОБЩЕСТВО И ПРАВО. – № 2 (68). – С. 80.
- Кириллова Л.Е. 2012. Дискурс лингвистической экспертизы и постановка экспертных задач [Электронный ресурс] / Л.Е.Кириллова. <http://www.pusexpert.ru/index.php?idp=content&id=133>
- Гарт И.В. 2019. Методологические проблемы лингвистической экспертизы // Современная теоретическая лингвистика и проблемы судебной экспертизы. Россия, г. Москва, 1-2 октября 2019 года. – С. 174-184.
- Бычков В.В. 2013. Предмет доказывания по уголовным делам о преступлениях экстремистской направленности // Библиотека криминалиста. Науч. журн. – № 4 (9). – С. 138-145.

ON THE METHOD AND METHODOLOGY OF LINGUOCRIMINAL RESEARCH

Jumanazar Urozov¹

Abstract

The practical significance of special fields such as linguo-criminology, forensic linguistics, court rhetoric, linguistics of the legal language, linguistics of law-making, which arose on the basis of the mutual integration of the fields of linguistics and jurisprudence at the world level, is highly appreciated. In particular, in the process of judicial investigation, it is of great importance to carry out tasks such as checking and analyzing criminalistic texts in the linguistic aspect, identifying problematic situations and giving them a legal assessment. This article discusses the methodology of linguistic research of texts related to the judicial investigation process. This method plays an important role in text research.

Key words: *Linguistic criminalistics, linguistic forensic expertise, methodology, method, general and special methods.*

References

- Arutyunov A.S. 2019. Metodologiya proizvodstva sudebnoy lingvisticheskoy ekspertizi s selyu ustanovleniya proyavleniy ekstremizma // OBSHESTVO I PRAVO. № 2 (68). – С. 80.
- Kirillova L.YE. 2012. Diskurs lingvisticheskoy ekspertizi i postanovka ekspertnix zadach [Elektronniy resurs] / L.YE.Kirillova. – Re- jim dostupa: <http://www.pusexpert.ru/index.php?idp=content&id=133>.
- Gart I.V. 2019. Metodologicheskiye problemi lingvisticheskoy ekspertizi // Sovremennaya teoreticheskaya lingvistika i problemi sudebnoy ekspertizi. Rossiya, g. Moskva, – С. 174-184.
- Bichkov V.V. 2013. Predmet dokazivaniya po ugovonnim delam o prestupleniyax ekstremisskoy napravlenosti // Biblioteka kriminalista. Nauch. jurn. – № 4 (9). – S. 138-145.

¹ Urozov Jumanazar Norkizilovich – Doctor of Philosophy in philological sciences (PhD), senior lecturer at Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: jumanazarurazov1992@gmail.com

ORCID ID: 0000-0001-9508-921X

For citation: Urozov, J.N. 2024. "On the method and methodology of linguocriminal research". Uzbekistan: language and culture. Problems of applied philology 2(5): 20-28. DOI: 10.52773/tsuull.aphil.2024.2.5/LVLM5250

Jurnal 2017-yil 26-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot
va axborot agentligi tomonidan № 0936 raqam bilan ro'yxatdan o'tgan.
Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc)
dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga
kiritilgan (30.10.2021. № 308/6).

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos
Hojib ko'chasi 103-uy.
Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz
E-mail: uzlangcult@gmail.com

Bosishga 29.03.2024-yilda ruxsat etildi.
Bichimi 70x100 1/16, Ofset bosma. "Cambria" garniturasida.
Nashr b.t. 10,375.

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali tahririyatida
tayyorlandi va sahifalandi.
"YASHNOBOD NASHR" bosmaxonasida chop etildi.
Adadi 300 nusxa. Buyurtma №3.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahar Yashnobod tumani,
58-a harbiy shaharcha.